

2020-yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi

2 100,0 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmining
o'sish sur'atlari



110,4 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining
o'sish sur'atlari

108,1 %



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

547,1 ming so'm



Xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020-yil 1-mart holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

21 362
birlik

Ularning umumiy sonidagi ulushi


65,3 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari

120,9 %

2020-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 21,4 mingtaga yetdi yoki ularning umumiy sonining 65,3 % ini tashkil etdi. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 20,9 % ga oshdi.

2020-yil 1-mart holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (39,6 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,6 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-mart holatiga, xizmatlar sohasida 17,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 36,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,6 %, tashish va saqlash - 4,8 %, axborot va aloqa - 2,5 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,2 %, boshqa turlar - 42,0 % ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar hajmi -
2 100,0
mlrd. so'm

Hajmning o'sishi -
374,3
mlrd. so'm


O'sish sur'ati -
110,4 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 100,0 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi 28,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (5,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,3 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)**



Shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar - 1,1 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,8 % ni tashkil etib, ularning jami xizmatlar tarkibidagi ulushlari nisbatan past ekanligi qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2 100,0	110,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	110,7	118,0
Moliyaviy xizmatlar	302,0	146,4
Transport xizmatlari	498,9	100,6
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	460,9	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	67,1	103,1
Savdo xizmatlari	596,9	103,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	64,0	102,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	118,3	138,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,2	118,8
Ijara xizmatlari	70,3	106,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	59,8	106,3
Shaxsiy xizmatlar	87,3	100,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	22,4	100,8
Boshqa xizmatlar	69,1	106,7

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, internet, raqamli televideniya va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan % da
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)**


Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (146,4%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (138,7%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (118,8%), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (118,0%) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish shaxsiy xizmatlar (0,3%), transport xizmatlari (0,6%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8%), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (2,1%) kuzatildi.



Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 92,4 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida boshqa transport faoliyati esa – 7,6 % ni qayd etadi.

Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 28,4 % ni tashkil etib, bu 596,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 80,4 mlrd. so'mga oshdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)**

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt-dan uch qismiga aniqrog'i 77,7 % ga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,9 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)



2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 302,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 46,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,7 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,1 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas va u 3,2 % ni tashkil etadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi, moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda keng interfaol xizmatlarni taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2020-yil yanvar-fevral oylarida)



**Xizmatlar hajmi -
110,7 mlrd. so'm**




**2019-yil yanvar-fevral
oylariga nisbatan o'sish
sur'ati - 118,0 %**



**Xizmatlarning jami
hajmidagi ulushi -
5,3 %**

2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning hajmi 110,7 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 118,0 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 98,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmda nashriyotchilik xizmatlari – 0,8 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,5 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,5 % ni tashkil etdi.


Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2020-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 118,3 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi. 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 138,7 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 11,9 mlrd. so'mga oshdi va 67,1 mlrd. so'mga yetdi.



76,5 %

• Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

• Yashash bo'yicha xizmatlar

23,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmda oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 76,5 % bilan ustunlik qiladi.


2020-yil yanvar-fevral oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2020-yil yanvar-fevral oylarida)

2020-yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 7,3 mlrd. so'mga oshdi va 33,2 mlrd. so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,8 % ni tashkil etdi.




Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarini hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan hamda ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi.

Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati bu - mahalliy lashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali, mintaqada iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

<p>2020-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 547,1 ming so'mga yetdi.</p> <p>O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.</p>	<p>Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 547,1 ming so'm</p> <hr/> <p>2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan</p> 
--	---

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35